

METODOLOGIYA HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Dilmurod Quronov

Annotatsiya: Abdulla Qodiriy ijodiy merosiga munosabatda kuzatilgan ayrim biryoqlamaliklar ildizi tadqiqot metodologiyasidagi kamchiliklarga borib taqalishi ko‘rsatilgan; tadqiqotchilik faoliyatida adabiyot nazariyasi va metodologiya bo‘yicha fundamental bilimlarning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq, tezis, metod, kontekst, kontekstual metod, immanent tahlil.

Akrom Malikning ijtimoiy tarmoqda ko‘plab e’tirozlarga sabab bo‘lgan “tezislar” – Abdulla Qodiriy va uning romanlari haqidagi qaydlari ortidan Yutubedagi “Vatandosh” kanalida u bilan intervyu e’lon qilindi. Fahmlashimcha, tashabbus Akrom Malikdan chiqqan, lekin, nima bo‘lganida ham, Ilyos Safarovning “kun qahramoni” bilan suhbatga jazm etgani yaxshi bo‘libdi. Bir tomoni o‘zini anglatish uchun “aybdor”ga imkon berilgani, ikkinchi tomoni, intervyu davomida Ilyos Safarovning imkon qadar xolis turishga harakat qilgani, nazarimda, shunaqa o‘ta ziddiyatli holatlarga yechim topishning ham oqilona yo‘llari qidirilayotganidan darak beradiki, buni qutlash kerak.

Akrom Malikning aytishicha, “tezislar” uning ixtiyoridan tashqari e’lon qilingani, ya’ni bu ish omonatga xiyonat qabilida sodir bo‘lganini ta’kidlab qo‘ymoq kerak. Ular muallifning tugal xulosalari bo‘lmay, yaqin muammoni – Navoiy devonini kontekstual o‘rganish davomida paydo bo‘lgan, Qodiriy ijodiga shu metod ko‘zoynagi bilan bir qarash natijasida tug‘ilgan va keyincha ilmiy tadqiq etib, asoslanishi lozim bo‘lgan fikrlar qaydidir. Ya’ni, agar omonatga xiyonat bo‘lmaganida, bu qarashlar keyincha monografik planda asoslab berilgan bo‘lur edi. Tan olish kerak, bu holatni nazarga olsak, Akrom Malik zimmasidagi ayb biroz yengillaydi, ikkinchi tomondan, xiyonat sabab ommalashgan “tezislar”ni muhokama qilish nojoizdek ko‘rinadi. Biroq hamonki “tezislar” sababidan qat’i nazar keng ommalashib bo‘lgan va g‘oyat qizg‘in muhokama qozoniga tushib, ko‘plab e’tirozlarni tug‘dirgan ekan – andishani bir yon qo‘yib, muhokamaga qo‘shilmoqqa jazm etarkan, ko‘ngilning bir uchiga Akrom Malikning “uzri”ni ham tugib turamiz.

Akrom Malikdan intervyuyer qo‘ygan postining paydo bo‘lish sababini so‘raganida, u gapni adabiyotshunosligimizdagi tadqiqot metodlari haqidagi fikrlar bilan boshladi: “Bizda, deylik, oddiy kitobxonlarni, mayli, qo‘yaylik-da, adabiyot ilmi mutaxassislarini tadqiqotlariga qaraydigan bo‘lsak, biron bir yozuvchining asariga baho berish metodlari, deylik, asarning o‘zini tanlab olib, mana shu asarning matni ustida, asosan, ish olib boriladi”.

Ko‘rib turganingizdek, yosh tadqiqotchi “bizda”gi ahvoldan, xususan, adabiyotshunosligimizda “asarning o‘zini tanlab olib, mana shu asarning matni ustida, asosan, ish olib borilishi”dan qoniqmaydi. Ya’ni u “O‘tkan kunlar”,

“Mehrobdan chayon” romanlari ham faqat matn nuqtayi nazaridan, uni alohida olib o‘rganib kelinadi, demoqchi bo‘lmoqda. Holbuki, aslida ahvol tamoman aksincha, ya’ni “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari faqat va faqat kontekstual tahlil obyekti bo‘lib keladi, to shu kunga qadar ham ular *immanent tahlil* obyekti bo‘lgan emas. Shu gapning o‘ziyoq Akrom Malik bir-biriga zid ikki turli tahlil metodlari guruhi – kontekstual va immanent tahlillarni aniq farqlamaydi, ularning mohiyati haqida yetarli ma’lumotga ega emas, degan shubha tug‘diradi. Aks holda, Abdulla Qodiriy bo‘yicha adabiyotshunosligimizda amalga oshirilgan tadqiqotlardan xabardor odam bunday demasligi kerak edi.

Bilmadim, balki intervyu sharoitidagi ruhiy holati bilan bog‘liq shunday ko‘ringan yoki qisqaroq aytish istagidandir, har holda Akrom Malik kontekstual tahlil tushunchasini anchagina toraytirib oldi. Zero, adabiy asar (*tekst*) kiruvchi *kontekstlar* doirasi juda keng – ijodkorning hayot yo‘li, davr ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari; muallifning asar yaratilgan davrdagi ijodi, uning ijodiy merosi, o‘sha davr adabiyoti, milliy adabiyot, jahon adabiyoti. Akrom Malik esa shulardan faqat bittasi – muallif ijodiy bisotini to‘lasicha kontekst deb olyapti-da, xulosalarini shundan keltirib chiqarayotganini iddao qilmoqda. Unga ko‘ra, “*Kontekstual tahlil, avvalo, demak, tadqiqot chegarasini belgilab oladi. Tadqiqot obyektini qismlarga bo‘lib chiqadi. Har bir qismni o‘rganadi, keyin umumlashtiradi*”. Holbuki, aslida kontekstual tahlilda gap tadqiqot chegarasini emas, “kontekstni belgilash”, ya’ni obyekt qaysi kontekst doirasida tadqiq etilishini aniqlash haqida bormog‘i kerak. Masalan, “O‘tkan kunlar” romani 1) yozuvchining biografiyasi, 2) adibning ijodiy merosi, 3) 20-yillar ijtimoiy-tarixiy sharoiti, 4) 20-yillar o‘zbek adabiyoti, 5) milliy folklordagi epik an’analar, 6) o‘zbek romanchiligi, 7) jahon romanchiligi kabi **kontekstlarda** tadqiq etilishi mumkin. Ikkinchidan, kontekstual tahlil tadqiqot obyektini – tahlil qilinajak asarni qismlarga bo‘lishni taqozo etmaydi, yo‘q, u asarga qism, kontekstga esa butun deb qaraydi, xolos. “*Misol uchun, – deydi Akrom Malik. – Abdulla Qodiriyning, deylik, tadqiq qiladigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning ijodini bir kontekst sifatida qabul qilishimiz kerak. Va buni qismlarga bo‘layotganimizda, har bitta asari uni(ng) bir, kontekstni(ng) bir qismi sifatida xizmat qiladi. Abdulla Qodiriyning shaxsiyati, uning fikri, deylik, inson sifatida jamiyatga, siyosatga, odamlarga bo‘lgan munosabati ana shu kontekstual tahlil natijasida xulosa qilinadi*”.

Kontekstual tahlil haqidagi fikrini aniqlashtirish uchun keltirgan misoli Akrom Malikning qarashlaridagi xatoni, *kontekstual tahlil* tushunchasini birmuncha yanglish tavsif etayotganini, yanglish tushunayotganini ko‘rsatadi. Kontekstual tahlil konkret asar tahlili bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, u asar (*tekst*)ni o‘zidan tashqaridagi birliklar fonida anglash demakdir. Ya’ni u asarni tushunish uchun

biografik, ijtimoiy-tarixiy, adabiy-madaniy kontekstlarga murojaat etish, xullas, asarning tashqi aloqalarini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Akrom Malik esa ijodkorni butun ijodiy merosidan kelib chiqib baholash, uning dunyoqarashini shu asosda aniqlash haqida gapiryapti. Bu esa kontekstual tahlil emas, uni *tizimli-butun yondashuv* (*системно-целостный подход*) deb bilgan to‘g‘riroq bo‘ladi. Zero, bunda Akrom Malik “*biz Kalvak mahzumni alohida, Kalvak mahzum haqidagi maqolalarini alohida olib tahlil qilsak, Toshpo‘lat tajang haqidagilarini alohida tadqiq-tahlil qilsak, “Obid ketmon”ni alohida tadqiq qilsak, biz to‘liq Qodiriyning fenomenini o‘rtaga qo‘yolmaymiz*” degan fikrdan kelib chiqadi. To‘g‘ri fikr, ijodkor haqidagi xolis ilmiy xulosa uning butun ijodiy merosi kontekstidan kelib chiqadi, lekin bu xulosada, tabiiyki, hamisha umumiy chizgilar ustuvor bo‘ladi. Ya’ni har bir chizgini aniqlashtirganingizda undan farqli xususiy chizgilar ham ko‘zga tashlanib qolaveradi. Deylik, umumiy xulosada Abdulla Qodiriy e’tiqodida sobit inson sifatida ko‘rilsa, bunga putur yetkazuvchi nuqtalar ham chiqadi.

To‘g‘ri, shundan keyin Akrom Malik “*Mehrobdan chayon*” romanini tushunish uchun, ehtimol, Qodiriyning kichik bir Julqunboy yoki Shakkok degan taxallus bilan yozgan bir maqolasi ham yordam berishi mumkin. Ya’ni kontekstual tahlil degani ijodkor matnini umumiy ijodini(ng) bir konteksti, bir-biriga bog‘liq, demak, qismlar sifatida ko‘rish, yaxlit sifatida xulosa qilish” degan fikrni aytadi. Darhaqiqat, roman mazmunini tushunishda ijodkorning boshqa bir asari yordam berishi mumkin va aynan shu narsa “tekst – kontekst” aloqasini ko‘rsatuvchi dalildir. Faqat kontekstual tahlil mohiyatini belgilovchi bu qonuniyat Akrom Malik yondashuvida xususiy hol sifatidagina namoyon bo‘lmoqda. Ayni shu prinsipda to‘g‘ri fikrdan keyinoq “*kontekstual tahlil degani ijodkor matnini umumiy ijodini(ng) bir konteksti, bir-biriga bog‘liq, demak, qismlar sifatida ko‘rish, yaxlit sifatida xulosa qilish...*” deydi. Ehtimol, intervyu sharoitida ifodada biroz chalkashlikka yo‘l qo‘ygandir, biroq bu yerda kontekstual tahlil yana yanglish ta’riflanmoqda. Zero, kontekstual tahlil Akrom Malik aytganidek “*ijodkor matnini (ya’ni asarni – D.Q.) umumiy ijodini(ng) bir konteksti*” deb emas, u yaratgan hamma asarlarni bitta *kontekst* deb, ularning har biriga esa *tekst* deb qaraydi. Shunday yondashuv asosidagi konkret asar tahlilida ijodkorning boshqa asarlari ham e’tiborga olinadi-da, *kontekstual tahlil* voqelanadi. Ya’ni yuqoridagilardan ma’lum bo‘lyaptiki, Akrom Malik o‘zi aytayotgan metod mohiyatini hali yetarli aniqlab olmagan, bu esa uni xato xulosalarga olib kelyapti. Jumladan, tadqiqotchining metod haqidagi bilim va tasavvurlarida chalkashliklar mana bu gaplarida ham ko‘rinadi: “*Shunchaki tadqiqot davomida, kontekstual metod jihatidan hazrat Navoiy asarlarini o‘rganar ekanman, “Qodiriyning ham barcha asarlarini bitta,*

demak, fazoda o‘rganib ko‘rsam qandoq bo‘larkin?” degan ma‘noni qo‘ydim-da, demak, mana shu xulosani berdim”.

E’tibor bering, gap “Qodiriyning ham barcha asarlarini bitta fazoda o‘rganib ko‘rish” haqida boryapti. Bu o‘rinda nima nazarda tutilayotgani esa suhbat davomida ma’lum bo‘ladi: hozirda Akrom Malik “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining yigirmalab qo‘lyozmalarini o‘rganib, shu asosda tadqiqot (garchi uning o‘zi *kontekstual metod jihatidan* desa ham, bu masalaga kontekstual tahlil metodini tatbiq etish imkonsiz) olib bormoqda ekan. Albatta, bitta devonning barcha mavjud qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganib chiqishning o‘zi – ilmiy muammo, biroq Qodiriy asarlarining hammasini o‘rganishning o‘zi hali ilmiy muammo emas, ularning hammasini bir ilmiy muammo aspektida o‘rganish – boshqa masala, bu holda ilmiy muammo qo‘yilgan sanaladi. Nazarimda, tadqiqotchi tabiatan ikki turli tadqiqotga bitta usulni (lekin kontekstual metodni emas) qo‘llashga harakat qilyaptiki, xatoning ildizi shunda. Zero, devonning barcha qo‘lyozmalarni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (masalan, pirovardida tadqiqot obyekti sifatida eng ishonchli matnni belgilash, hazrat she’rlarining eng ishonchli matnlari bilan ish ko‘rish kabi) o‘zini oqlaydi. Biroq Qodiriyning barcha asarlarini tadqiq etish asosida uning dunyoqarashini aniqlash degan maqsadning qo‘yilishi adabiyotshunoslik ilmi nuqtayi nazaridan to‘g‘ri emas (ya’ni bu adabiyotshunoslik muammosi emas, boshqa ilm sohalari uchun to‘g‘ri bo‘laveradi, albatta) va bu holda kontekstual tahlil haqida gapirish ham ortiqcha. Holbuki, yuqorida ham aytdik, Akrom Malik ijodkorni butun ijodiy merosidan kelib chiqib baholash, shu asosda uning dunyoqarashini aniqlashni birlamchi vazifa qilib qo‘ymoqda. Ikkinchi yoqdan, unutmash kerakki, dunyoqarash degani yaxlit holicha aniqlanadigan narsa emas, u vaqt o‘tishi bilan to‘lishib, aniqlashib, o‘zgarib boradigan – harakatdagi hodisadir. Ya’ni “O‘tkan kunlar” yozilgan vaqtdagi Qodiriy dunyoqarashi bilan uning “Mehrob dan chayon” yozilgan paytdagi dunyoqarashi bitta narsa emas – oradagi sakkiz yil unga muayyan tahrirlarni kiritgani shubhasiz. O‘sha tahrirlar mohiyatini kontekstdan – shaxsiy va jamiyat hayotida yuz bergan hodisalar, shu davrda yozilgan asarlari asosida anglab olishimiz mumkin bo‘ladi.

Xullas, Akrom Malik konsepsiyasida dunyoqarashga hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Aslida, “tezis”lardagi keskinlik ham shundan: undagi hamma bandlar o‘zida dunyoqarash asosidagi bahoni aks ettiradi – tadqiqotchi dunyoqarashiga singishmagan jihatlar keskin inkor qilinadi. Sirasi, Akrom Malik bir paytlar keskin qoralangan *vulgar* (ya’ni buzilgan) *sotsiologik* yondashuv qolipida fikr yurityapti, shuning uchun ham hozirda yoshlar orasida ancha urchib qolgan nigilizmga bo‘y berib qo‘ymoqda. Akrom Malikning badiiy asarni baholashning bir necha mezonlari borligini e’tirof etgani holda, birinchi o‘ringa dunyoqarash

masalalarni chiqarayotgani va unga ustuvor ahamiyat berayotgani ham shundandir. Buni uning mana bu gaplaridan ham ko‘rsa bo‘ladi: *“Demak, avvalo bir narsani bilishimiz kerak: badiiy asarda yozuvchi fenomeni, ya’ni yozuvchining dunyoqarashi aks etadi. Va bu yozuvchining dunyoqarashi bu yaxlit individ, jamiyatdan uzilgan hodisa emas. U jamiyatda, sotsiumda bo‘layotgan hodisalar bilan bevosita bog‘lanib ketadigan, o‘zining atrofidagi munosabatlarni, jamiyatdagi holatni aks ettiruvchi bir hujjat, bir manzara. Mana shu narsani biz aniqlashimiz kerak, ya’ni Qodiriyning dunyoqarashi, misol uchun, mening maqsadim, tadqiqotdan nimani izlayapsan desa, men aytishim mumkinki: Qodiriyning dunyoqarashini izlamoqchiman. Xo‘p, uning dinga aytishim munosabati alohida bir masala, deylik, siyosatga bo‘lgan munosabati alohida bir masala, yoki koloniya, ya’ni istibdod tuzumiga bo‘lgan munosabati alohida bir masala, Sovet Ittifoqiga bo‘lgan simpatiyasi yoki uni yoqlagani alohida bir masala, Chor Rossiyasiga qarshi fikrlari alohida bir masala, oilaviy masalalardagi munosabati alohida masala – alohida o‘rganiladi. Ya’ni buni mana shu kontekstual tahlil metodologiyasini o‘rganish...”* (esizgina, shu yerda Ilyos Safarov gapni bo‘lib qo‘ydi, balki metod haqida aniqroq gap chiqarmidi, yana bilmadim – D.Q.).

Ishlatayotgan istilohlariga qaraganda, Akrom Malik adabiy asarni fenomenologik yondashuv asosida tushunishga moyil, unga ko‘ra, *“badiiy asarda yozuvchi fenomeni”* aks etadi. Faqat shunisi borki, *“yozuvchi fenomeni”* deganini u *“ya’ni yozuvchining dunyoqarashi”* deb aniqlashtiradi, demak, *“yozuvchi fenomeni”* va *“yozuvchi dunyoqarashi”* tushunchalari orasiga tenglik alomatini qo‘yadi. Aslida esa, fenomenologiyaga ko‘ra, badiiy asarda san’atkorning ijod onlaridagi ma’naviy-ruhiy butunligi (tabiiyki, dunyoqarash ham shuning ichiga singib ketgan) aks etadi. Ravshanki, shu ma’naviy-ruhiy butunlikda barcha kontekstlarning izi borligi ham hech shubhasiz. Ya’ni kontekstlarni bilish o‘sha ma’naviy-ruhiy butunlikni tasavvur qilishga imkon beradi. Shunisi ham borki, kontekstlarning bari shu ma’naviy-ruhiy butunlik nuqtayi nazaridangina qimmat kasb etadi. Sodda qilib aytsak, bu yozuvchi hayoti faktlari, yaratgan u yoki bu asari va sh.k.lar faqat o‘sha paytdagi ma’naviy-ruhiy butunlikka singisagina qabul qilinadi, singimagani *“yot jins”* o‘laroq inkor qilinadi deganidir. Shu ma’noda, Qodiriy hayoti va ijodi faktlarini *“O‘tkan kunlar”*gami, yo boshqa asarigami to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lashga urinish xatodir. Tamsil qilmoqchi bo‘lsak, badiiy ijod jarayonini novvot pishirish deb tasavvur qiling. Qozonga solingan shakar va suv aralashmasi – qiyom obdon qaynagach, bug‘langan par tortilgan iplarga yopishib, kristallashadi – *“dur”* deb ataluvchi novvot hosil bo‘ladi. Lekin qiyomning qancha-qanchasi obdon qaynayolmaganidan ipga yopisholmay, novvotga aylana olmay *“qozontagi”* bo‘lib qolaveradi va ulgurchasiga shakar narxida, balki undan-da

arzonroq pulga sotiladi. Mabodo sotuvchi durga qozontagini qo‘shib bergudek bo‘lsa, aqli rasoki xaridor e‘tiroz qiladi va bu – tabiiy. Akrom Malik ham qozontagini durga aralashtirmoqchi bo‘layotgan kabi, buni aslo qabul qilib bo‘lmaydi.

Ikkinchi tomondan, Akrom Malik aytmoqchi, adibning dinga, siyosatga, istibdod tuzumiga munosabati, “*Sovet Ittifoqiga bo‘lgan simpatiyasi yoki uni yoqlagani*”, “*Chor Rossiyasiga qarshi fikrlari alohida masala*”gina emas, adabiyotshunoslik ilmi uchun ikkilamchi masala hamdir. Ya’ni shu ma’nodaki, adabiyotshunoslikni dunyoqarash o‘z holicha emas, qanday ifodalanayotgani, qanday vositalar orqali ifodalanayotgani, asar mazmun-ruhiga qanday ta’sir qilayotgani kabi nuqtayi nazarlardan qiziqtiradi. Asar mazmuni bevosita o‘qish jarayonida voqelanar ekan, muallif dunyoqarashi – u yetkazmoqchi (yoki o‘tkazmoqchi) bo‘layotgan o‘y-fikrlar ham mazmunning ajralmas qismi o‘laroq namoyon bo‘ladi. Sirasi, Akrom Malik sanagan narsa-hodisalarga yozuvchi munosabati mutolaa davomida zukko o‘quvchiga ayon bo‘ladi: Otabekning Shamay xotiralarini havas-la so‘zlashiyu Oqmasjid mudofi‘larining oldingi safida turib shahid bo‘lishi; Otabek bilan Usta Alim taqdirlarining qiyoslanishi, Yusufbek hojidek odamning siyosatdagi bolalarcha soddaligiyo beklarning manfaatga bo‘ysunuvchi hisob-kitobi – romanda sochilib yotgan shu kabi ko‘plab holatlar muallifning dunyoqarashini ham yetarlicha ifoda etadi. Eng muhimi, ayni shular Qodiriyning asl qarashlari, zero, ular adib voqelikdan uzilib, unga ideal olamidan turib boqqan onlarida ayon bo‘lgan haqiqatlardir.

Nihoyat, yana bir muhim va fundamental metodologik shart: biz adabiy asarga badiiyat hodisasi sifatida, olam ichra bir olam sifatida qarashimiz zarur. Bu esa hayotiy tajribalarimiz asosida asarda tasvirlangan voqelikni baholash emas, asar voqeligida yashab o‘tish asnosi hayotiy tajribalarimizni boyitish yo‘lini tutishni taqozo etadi. Aytaylik, bugungi turmushimizda ko‘rayotganlaridan kelib chiqib “Yusufbek hoji: oilasi boshqaruvini xotiniga topshirib qo‘ygan bo‘shang erkak” qabilida hukm chiqarish adabiyotni jo‘nlashtirish, hatto Yusufbek hojiga nisbatan tuhmat bo‘ladi. Xuddi shu yerda Akrom Malik ma’qullamagan *immanent tahlil*, ya’ni asar (yoki matn) qismlarining ichki aloqalariga diqqat qilish zarur bo‘ladi.

O‘zbek oyim haqida yozuvchi “*eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi*” degani rost va shu gap ko‘pchilikning xayolida Yusufbek hojining xotini bilan munosabati haqida yanglish tasavvurni shakllantirgan. Holbuki, Qodiriy boshqacha holatni chizadi va buni anglash uchun matnni diqqat bilan o‘qish kerak bo‘ladi. Adibning yozishicha, Yusufbek hoji “*xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa bo‘lsin uzoq so‘zlashib o‘lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so‘zlari va yo kengashlari*

bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlab beradilar...” E’tibor bering, yozuvchi umuman “*uy ichi bilan*” deb ta’kidlayapti, ya’ni – hoji xotining so‘ziga alohida ahamiyat bermasligini. Davomida aytadiki, “*maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘zig‘a tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma‘qul tushsa “xo‘b” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa “xo‘sh” deydir, noma‘qul bo‘lsa “durust emas” deydir va juda ham o‘ziga noma‘qul gap bo‘lsa bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir*”. E’tibor bering, O‘zbek oyim ham erining yuziga qaramasdan maqsadni aytadi va “*sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydi*” – har qanday hukmni qabul qiladigan alfozda. Shuning uchun ham, Marg‘ilonda uylanib qo‘ygan o‘g‘lidan shikoyat qilgan “*O‘zbek oyim yuqoridag‘i o‘zining itob va xitobiga eridan bir iljayib qo‘yish javobini olib dami ichiga tushadi va chor-nochor o‘ttuz kunlab bir zamonni o‘zicha marg‘ilonliqni qarg‘ash bilan kechiradir*”. Takrorlamasam hech bo‘lmaydi-da, mana: shuncha dod-faryod qilgan xotin “*eridan bir iljayib qo‘yish javobini olib dami ichiga tushadir*” ekan! Xolisanlillo, ayting-chi, shunday odamning iznisiz oilada biron narsa bo‘lishi mumkinmi? Menimcha ham, yo‘q. Bas, shu odamni “oilasi boshqaruvini xotiniga topshirib qo‘ygan bo‘shang erkak” deyish tuhmat emasmi? Ovozini ko‘tarish yo qo‘l ko‘tarishni qo‘ying, ma’nili “bir iljayish” bilan xotinning damini o‘chirgan erkakni “bo‘shang” desa bo‘ladimi?! Qarang, O‘zbek oyim bir yil dod-faryod qilib yurdi, oxiri Yusufbek hoji “buyam kelin ko‘rishga haqli, yo marg‘ilonlik kelin kelsin, yo o‘g‘ilni shu yerdan uylash kerak degan qarorga keldi”. Bir yil-a, aytishga oson! O‘zbek oyim ayrimlar o‘ylaganidek “dama ko‘zir” bo‘lganida, masala bir yilga cho‘zilarmidi?!..

... nisbatan biroz tajribaliroq tadqiqotchi sifatida Akrom Malik va boshqa yosh tadqiqotchilarga aytadiganim shuki, “nazariya”, “metodologiya” deganlari ham kerakli narsaligini hisobga olib, bu boradagi bilimlarini bir qator yangilab (hech bo‘lmasa darsliklarni hijjalab o‘qib qo‘ying, baraka topkurlar!) qo‘ysalar. Adabiyotshunos bo‘lish uchun asar haqida shunchaki fikr aytib qo‘yishning o‘zi kam, uni ilmiy asoslab aytish lozim. Nachora, adabiyot ham futbolga o‘xshagan narsa – uni hamma biladi, asl adabiyotshunosning gapi eng avval shu yolg‘on tasavvurni barbod qilishga qaratilmog‘i kerak. Buning yo‘li esa bitta – chin ilmiy asosda, mavjud nazariyalar va tadqiq usullarini puxta o‘zlashtirgan holda fikrlashdir.